

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA PEDAGOGIK MAQOM BERILGANLIGINI BILASIZMI?

Raxmonova Rayxona Nabijon qizi

Termiz Davlat universiteti yuridik fakulteti 1-kurs talabasi

Tursunov Behruz Normurod o'g'li

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14603270>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida pedagogik maqomning belgilanishi va uning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Konstitutsiyada ta'lim va pedagoglar uchun berilgan huquqlar va majburiyatlar tahlil qilinadi. Pedagogik maqomning yuksak darajada belgilanishi O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishi va sifatli kadrlar tayyorlashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy, madaniy – marifiy islohotlarning muhim qismi ekanligi ko'rsatiladi. Maqolada pedagoglarning jamiyatdagi o'zni va davlat tomonidan ularga ko'rsatiladigan e'tiborning ahamiyati ham yoritiladi.

Annotation: This article provides detailed information about the definition and significance of the pedagogical status in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the rights and duties granted to educators within the constitution. The high level of pedagogical status established is shown to be a crucial part of political and social reforms aimed at developing the education system and training qualified personnel in Uzbekistan. The article also highlights the importance of the attention given by the state to the role of teachers in society.

Аннотация: В данной статье предоставлена подробная информация о значении и закреплении педагогического статуса в Конституции Республики Узбекистан. Анализируются права и обязанности, предоставленные педагогам в рамках конституции. Указывается, что высокий уровень педагогического статуса является важной частью политических и социальных реформ, направленных на развитие системы образования и подготовку квалифицированных кадров в Узбекистане. В статье также подчеркивается важность внимания, уделяемого государством роли педагогов в обществе.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Pedagogik maqom, Ta'lim tizimi, Pedagoglar huquqlari, Pedagoglar majburiyatlari, Ta'lim islohotlari, Ijtimoiy siyosat, Sifatli ta'lim.



Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, Pedagogical status, Education system, Teachers' rights, Teachers' duties, Educational reforms, Social policy, Quality education

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Педагогический статус, Система образования, Права педагогов, Обязанности педагогов, Реформы образования, Социальная политика, Качественное образование.

Pedagogik maqom to'risidagi qonun nafaqat ta'lim sohasini rivojlanishiga yordam beradi hamda har bitta pedagog qonunchiligimizda belgilanga o'z sohasiga oid qonun va qoidalar doimo ularni qo'llab-quvvatlashidan ham darak berib ularni himoya qiladi. Shu bilan birgalikda pedagoglarning davlat bo'jidan ozod qilinishi, ularni kasbiy faoliyatiga aralashishni taqiqlash, va kasbiy faoliyati boshlangan shaxslarga o'qituvchilik –murabbiylik tizimi joriy etilganligi bu pedagogika sohasida yanada qulayliklar olib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim insonni yuksak va yetuklik darajasiga ko'tarib qolmasdan, u davlatimizning ham yuksalishida eng kata ahamiyatga ega. Jahon tajribasi ham faqat ta'lim orqaligina ko'plab muammolargani hal qilish mumkinligini ko'rsatadi. Qayerda va qachon bo'lmasib bilimi yuksak qobilyatli kishilar o'z yutuqlari bilan mamlakatimizni rivojlantirishda yordam beradi. Fuqarolarning bilimli bo'lishga undash va ularni ruhlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim tizimidagi yangi islohat va shart – sharoitlar har bitta ilm izlagan insonlarning nazaridan chetda qolmaydi.

“ O'zbekistonda har bir shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida mukammal ta'lim tizimi shakllantirildi va takomillashtirmoqda. 1992-yil 80 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning 41-moddasida: “ Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. maktab ishlari davlat nazoratidadir ” – deb ta'lim olish huquqi qisqa bayon qilingan edi.

Hozirgi paytda ta'limning jahon mamlakatlarning rivojlanishda o'rni hisobga olinib yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta'limga taalluqli munosabatlar uchun 4 ta modda ajratildi va huquqiy normalar ham ko'paytirildi.

Konstitutsiyaning 50- moddasida:” Har kim talim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turdagi va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya umumiy o'rta ta'lim davlat

nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarda alohida ta'lim ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" - deb ta'lim munosabatlarni keng va mukammal belgilangan .

Konstitutsiyaning 51-moddasi fuqarolar oliy ta'lim olish huquqini belgilaydi. Unga asosan "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarda tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ma'lumot tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligiga ega". Umumiy o'rta ta'lim olish huquqi hammaga tegishli bo'lsa oliy ta'lim tanlovlari tanlovdan o'tgan uchun davlat hisobidan qolganlarga o'z hisobidan ta'minlanadi.


Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning diqqatga sazovor tomonlaridan biri - uning maxsus normalari bilan o'qituvchi maqomini alohida yuqori darajada belgilash bo'ladi. Konstitutsiyaning 52- moddasida O'zbekiston respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqining ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi .Davlat o'qituvchilarining shani va qadr-qimmatini himoya qilish ularni ijtimoiy va madaniy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risidagi g'amxo'rlik qiladi"- deb mustahkamlanadi va jamiyat davlatni rivojlantiruvchi kuch sifatida o'qituvchi mehnati faoliyati e'tirof etiladi.

Konstitutsiyaning 53- moddasida belgilangan erkinlikni ta'lim-huquqini davom davomi hisoblash mumkin. Shu sababli bu masalani mazkur banda qisqacha yoritishni to'g'ri bo'ladi. Shu moddada "Har kimga ilmiy , texnikaviy va badiiy ijod erkinligi madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi davlat jamiyatning madaniy ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi deb belgilangan". Bu moddada asosiy yangilik intellektual mulk huquqini himoya qilishini asosini Konstitutsiyada belgilanishidir ."

O'zbekiston Respublikasida pedagogik maqom, ya'ni pedagoglarning ijtimoiy, huquqiy va kasbiy mavqei boshqa davlatlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, ba'zi o'xshashliklar va farqlar mavjud. Pedagogik maqom, umuman olganda, ta'lim tizimi va pedagoglarning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi tizimdir. Quydagi jihatlarda o'xshashliklar va qarama-qarshiliklar ko'rinadi:

O'xshashliklar:

1. Pedagogik ta'limning ijtimoiy ahamiyati:Ko'plab mamlakatlarda pedagoglar jamiyatda o'qituvchilik va ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim rollarga ega. Ta'lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.



Pedagoglar kasbiy ravishda yuqori darajali bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

2. Pedagoglarning kasbiy maqomi:

Pedagoglar ko'plab davlatlarda maxsus ta'lim, malaka oshirish va pedagogik sifatlarni ta'minlashga intiladi.

Pedagoglar ko'pincha davlat tomonidan ish haqi va ijtimoiy himoya bilan ta'minlanadi.

Qarama-qarshiliklar:

1. Pedagogik maqomning huquqiy asoslari:

Ózbekistonda pedagoglarning maqomi, ularning huquqlari va majburiyatlari "Pedagogik faoliyat to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Boshqa mamlakatlarda bu soha, masalan, AQShda, individual shtatlar tomonidan boshqariladi va ta'lim tizimi umumiy federal qonunlarga muvofiq tashkil etiladi. Pedagoglarning ijtimoiy maqomi va hurmati ba'zi mamlakatlarda yuqori bo'lishi mumkin, boshqalarda esa, masalan, Xitoyda, pedagoglar ko'pincha ijtimoiy hayotda yuqori maqomga ega bo'ladi, lekin bu yerda ta'lim tizimi kuchli markazlashgan.

2. Ta'lim tizimidagi farqlar:

Ózbekistonda davlat ta'lim tizimi katta rol o'ynaydi, ta'limning barcha bosqichlari davlat tomonidan boshqariladi va moliyalashtiriladi. Boshqa davlatlarda, masalan, Yaponiya yoki Finlandiyada, ta'lim tizimi ko'proq mustaqil va erkin bo'lib, pedagoglar ko'proq huquqlarga ega.

3. Pedagogik maqsadlar va metodologiyalar:

Har bir davlatda ta'lim tizimi va pedagogik yondashuvlar o'ziga xos bo'ladi. Ózbekistonda ko'proq sovet davridagi ta'lim an'analari, dars metodlari saqlanib qolgan bo'lsa, boshqa davlatlar, masalan, Skandinaviya, Finlandiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida o'quvchilarga yanada erkin va individual yondashuvlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Konstitutsiyaviy huquq darsligi, O.T. Husanov, 2023-yil.
2. Ózbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
3. Ózbekistondagi pedagogik maqomning asosiy manbalaridan biri "Pedagogik faoliyat to'g'risida"gi qonun bo'lib, bu huquqiy asoslar pedagoglarning kasbiy maqomiga doir barcha normativ hujjatlarni belgilaydi. Boshqa davlatlarda bu manbalar turlicha bo'lishi mumkin: masalan, AQShda ta'lim qonunlari, Yaponiya va Finlyandiyada ta'lim tizimiga oid davlat siyosati va an'analari.
4. Lexuz